

# O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (2023- yil yanvar-may oylari)

## 1. Sanoat mahsuloti

2023- yilning yanvar-may oylarida respublika korxonalarini tomonidan **231,2** trillion so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va sanoat ishlab chiqarish indeksi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **105,7** foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoatning ulushi 82,2 foizni, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati 9,5 foizni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 7,8 foizni, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish 0,5 foizni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi o'sishining asosiy omili bo'lib tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 1,9 %ga, qayta ishlash sanoati korxonalarida ishlab chiqarish o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,1 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish sanoatida 1,6 %ga, hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoatida fizik hajm indeksi 10,3 % ga oshganligi kuzatildi.

Shu bilan birga, o'tgan yilning shu davriga nisbatan rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqaradigan sanoatida (2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,9%), shuningdek, elektr uskunalari ishlab chiqarish qayta ishlash sanoatida (161,7 %) hajmi oshdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish (2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 75,0 %), kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar (2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 97,5 %) kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish (2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 99,1 %) hajmi pasayishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida ishlab chiqarish xajmining o'zgarishiga xom neft va tabiiy gaz qazib olish sanoatida (2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 100,8 %) ishlab chiqarish hajmining o'sishi sabab bo'ldi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 108,0 %ni tashkil etdi, shu bilan birga ularning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining umumiy hajmidagi ulushi 28,1 %ga yetdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi **41,0** %ni, nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi esa **59,0** % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 110,1 % ni, nooziq-ovqat tovarlari o'sish sur'ati esa 107,9 % ni tashkil etdi.

## 2. Inflyatsiya darajasi

2023- yilning yanvar-may oylarida respublika iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasini aks ettiruvchi iste'mol narxlari indeksi (INI) **103,8** %ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha INI 105,3 % ni, nooziq-ovqat mahsulotlar bo'yicha 102,7 % ni, xizmatlar bo'yicha 102,7 % ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-mayida yig'ma ko'rsatkich o'sish sur'atiga oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'zgarishlarining ta'siri 2,23 foiz darajasini (keyingi o'rinlarda f.d.) tashkil etdi. Ularning hissasiga kuzatiladigan barcha tovarlar va xizmatlar ta'sirining 59,3 %i to'g'ri keldi. Nooziq-ovqat mahsulotlar narxlarining ushbu davrda yig'ma ko'rsatkich o'sish sur'atiga ta'siri 0,91 f.d. (24,2 %) va xizmatlarda 0,62 f.d. (16,5 %) kuzatildi.

O'zR MIIT-2018 bo'limlari orasida 2023- yilning yanvar-mayida restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari INI 107,8 % ni, oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar hamda sog'liqni saqlash sohasida 105,2 % ni, dam olish, sport va madaniyat sohasida 104,7 % ni, maishiy va boshqa tovarlar va xizmatlarda 104,4 % ni, spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari bo'yicha 103,8 % ni, uy-ro'zg'or buyumlari, maishiy texnika va uy joylarga kundalik xizmat ko'rsatish sohasida 103,7 % ni, transport sohasida 102,7 % ni, kiyim va poyabzal – 101,8 % ni tashkil etdi.

Bo'limlarning aholi iste'mol xarajatlari tarkibidagi salmoq vaznlarini hisobga olgan holda, 2023- yil yanvar-mayidagi yig'ma INI o'sish sur'atiga oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narxlari o'zgarishlarining ta'siri 2,08 f.d. ni, sog'liqni saqlash sohasida 0,34 f.d. ni, transport sohasida hamda uy-ro'zg'or buyumlari, maishiy texnika va uy joylarga kundalik xizmat ko'rsatish sohasida 0,22 f.d. ni, kiyimlar va poyabzallar 0,21 f.d.ni, turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari 0,18 f.d.ni, maishiy va boshqa tovarlar va xizmatlar sohasida 0,19 f.d. tashkil etdi. Boshqa bo'limlarning ta'siri juda past darajada kuzatildi.

## 3. Qurilish ishlari

2023- yilning yanvar-may oyida **52140,7** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **104,7** %ni tashkil etdi. Qurilish ishlarining umumiy hajmining 12496,5 mlrd. so'mi yoki 24,0 % yirik korxonalar va tashkilotlar, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 31472,6 mlrd. so'm yoki 60,4 %, norasmiy sektor sub'ektlari tomonidan 8171,6 mlrd.so'm yoki 15,6 % bajarildi.

## 4. Chakana savdo tovar aylanmasi

2023- yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **108 654,0** mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **7,2** % ga o'sdi.

Yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi 2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **18,8** % ga o'sdi, bu esa umumiy savdo hajmining **17,2** % ulushiga to'g'ri keladi. Kichik biznes sub'ektlarining chakana tovar aylanmasi

2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **4,9 %** ga oʻsgan. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **82,8 %** ni, shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **10,1 %** ulush bilan **10 970,8** mlrd. soʻmni tashkil etdi.

### **5. Tashqi savdo aylanmasi**

2023- yilning yanvar-may oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi **25 817,6** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **5 236,8** mln. AQSh dollariga yoki **25,4 %** ga koʻpaydi. Eksport hajmi **10 511,5** mln. AQSh dollariga yetdi, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan **24,1 %** ga koʻpaydi (*Nomonetar oltin hisobiga koʻpaydi va uning hajmi 4 375,5 mln. AQSh doll. 2022- yilning shu davriga nisbatan – 47,3% ga koʻpaygan*). Import **15 306,2** mln. AQSh dollariga yetdi oʻtgan yilning shu davriga nisbatan **26,4 %** ga oʻsdi.

Eksport tarkibida quyidagi guruhlarda oʻsish kuzatildi. Jumladan: ichimliklar va tamaki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan - 50,5 % (17,1 mln. AQSh doll.)ga, mashinalar va transport asbob-uskunalar - 74,7 % (210,7 mln. AQSh doll.)ga, turli xil tayyor buyumlar 25,5 % (99,6 mln AQSh doll.)ga hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar 31,5 % (162,8 mln. doll.)ga koʻpaydi.

Import tarkibida quyidagi guruhlarda ham oʻsish kuzatildi. Jumladan: mashinalar va transport asbob-uskunalar – 42,9 % (1 788,9 mln. AQSh doll.)ga, mineral yoqilgʻi, yogʻlash moylari va shunga oʻxshash materiallar 71,7 % (473,4 mln. AQSh doll.)ga hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga oʻxshash mahsulotlar – 18,2 % (315,5 mln. AQSh doll.)ga toʻgʻri keladi.

### **6. Koʻrsatilgan bozor xizmatlari**

2023- yilning yanvar-may oylarida koʻrsatilgan bozor xizmatlari hajmi **173,7** trln. soʻmni tashkil etdi va oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **12,6 %** ga oʻsdi.

Koʻrsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining oʻsishida moliyaviy xizmatlarning 20,0 % ga (koʻrsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmining oʻsishidagi taʼsiri 4,6 punkt), transport xizmatlari 9,6 %ga (oʻsishdagi taʼsiri 2,1 punkt), savdo xizmatlari 7,9 %ga (oʻsishdagi taʼsiri 2,0 punkt), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 24,6 %ga (oʻsishdagi taʼsiri 1,7 punkt), taʼlim sohasidagi xizmatlarning 21,1 %ga (oʻsishdagi taʼsiri 0,9 punkt) oʻsishi ijobiy taʼsir koʻrsatdi.

Koʻrsatilgan bozor xizmatlarning eng katta hajmi moliyaviy xizmatlar (41,0 trln.soʻm, oʻtgan yilga nisbatan oʻsish surʼati 120,0 %), transport xizmatlari (40,3 trln.soʻm, 109,6 %) va savdo xizmatlari (41,0 trln.soʻm, 107,9 %)ga toʻgʻri keladi.

## 7. Korxonalar va tashkilotlar soni

2023- yil 1- iyun holatiga respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **480,4** mingtani (*fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari*) tashkil etdi, ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 413,6 mingta. Hududlar bo'yicha joylashgan eng ko'p soni esa Toshkent shahar (94 014 ta), Toshkent (44 611 ta), Samarqand (43 371 ta), Farg'ona (42 085 ta), Qashqadaryo (35 821 ta), Andijon (31 167 ta) va Buxoro (30 111 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning eng ko'p soni savdo sohasida – 155 651 ta, sanoat sohasida – 70 611 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasida – 39 488 ta, qurilish sohasida – 34 410 ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 27 698 tani tashkil etadi.

2023- yil yanvar-may oyida respublikada 40,1 mingta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, shundan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 38,9 mingtani tashkil etdi.

2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra respublikada xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 12 807 tani tashkil etdi. Ulardan 4 919 tasi qo'shma korxonalarni va 7 888 tasi xorijiy korxonalarni tashkil etgan.